

**Nosirova Dilfuza Nabiyevna**

*Andijon viloyati Yuridik tehnikumi yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi,  
3-chi darajali yurist.*

**Annotatsiya:** *Ustozlar biz uchun yaratgan tomonidan beriladigan alohida ne'matdir. Aynan ular millatni ulug'likka yetaklaydilar, insонни yetuk qiladilar va dunyoni yaxshi tomonga o'zgartiradilar. Aynan o'qituvchilar bizga qalam qilichdan muhimroq ekanligini o'rgatadi. ular jamiyatda hurmatga sazovordir, ular insonlarning turmush darajasini oshiradi. ular odamni tarbiyalaydi va insoniy fazilaylarni o'rgatadi, yaxshi jamiyat qurishga hissa qo'shadi. Ustozlar jamiyatga va shogirdlar, o'quvchilar hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. ular, shuningdek, ota-onanayotida katta ahamiyatga ega, chunki ota-onalar o'z farzandlari uchun o'qituvchilardan ko'pnarsani kutishadi. Biroq, har bir sohada bo'lgani kabi, yaxshi ham, yomon ham ustozlar bor. Yomon o'qituvchilar unchalik ko'p bo'lmasa-da, ularning soni sezilarli. Yaxshi ustoz yomon ustozda bo'lмаган fazilatlarga ega. Yaxshi ustoz yaxshi jamiyat tuzsa, yomoni o'sha jamiyatni buzadi. Yaxshi ustoz o'quvchini kasbga, ilmiga bo'lgan mehrini oshirsa, yomoni uni batamom yo'q qilib yuborishi mumkin. Yaxshi ustozni topish qiyin emas, lekin qayerga qarash kerakligini bilish zarur. Yaxshi o'qituvchilar ta'llim berish uchun oldindan yaxshi tayyorgarlik ko'rishgan bo'ladi. Maksimal mahsuldarlikni ta'minlash uchun ular har kuni o'z harakat rejasini tayyorlaydilar. O'qituvchilar hamma narsadan, xususan, ular ixtisoslashgan fanlardan juda ko'p bilinga ega. Yaxshi o'qituvchi o'z bilimini doimiy ravishda kengaytirib boradi va o'z o'quvchilariga yaxshi, zamon talabiga mos ta'llim berishda davom etadi. Xuddi shunday, yaxshi o'qituvchi har qanday qiyinchilikda bizga yordam beradigan do'stga o'xshaydi. Yaxshi o'qituvchi o'ziga xos va umumiy bo'lмаган individual o'quv jarayonini yaratadi. Bu talabalarni mavzuni yaxshiroq o'rganishga undaydi. Boshqacha qilib aytganda, yaxshi o'qituvchi o'z o'quvchilarining samarali o'qishini va yaxshi baho olishini ta'minlaydi. Eng muhimi, yaxshi o'qituvchi - bu nafaqat ilmiy ko'rsatkichlarimizga, balki umumiy rivojlanishimizga e'tibor qaratadigan kishi. Shundagina o'quvchi haqiqatan ham o'sishi mumkin. Shunday qilib, yaxshi o'qituvchilar o'z o'quvchilarining muammolarini tushunishadi va ularni to'g'ri hal qilishga harakat qilishadi.*

**Kalit so'zlar.** *Ustoz, bilim, kitob, ma'rifat, madanyat, ta'llim, tarbiya, savod, yaxshi, yomon, xulq, odob.*

**Аннотация:** Учителя – это особое благословение, данное нам Создателем. Именно они ведут нацию к величию, взрослеют человека и меняют мир к лучшему. Именно учителя учат нас, что перо важнее меча. Их уважают в обществе, они повышают уровень жизни людей. Они воспитывают человека и учат человеческим добродетелям, способствуют построению хорошего общества. Учителя оказывают большое влияние на общество и жизнь учащихся. Они также очень важны в жизни родителей, поскольку родители многого ждут от учителей для своих детей. Однако, как и в любой сфере, есть хорошие и плохие наставники. Плохих учителей не так уж и много, но их количество значительно. Хороший учитель обладает качествами, которых нет у плохого учителя. Хороший учитель строит хорошее общество,

плохой – разрушает это общество. Хороший преподаватель может повысить любовь ученика к профессии и науке, а плохой – полностью ее уничтожить. Найти хорошего наставника несложно, но важно знать, где искать. Хорошие учителя заранее хорошо готовятся к преподаванию. Они каждый день готовят собственный план действий, чтобы обеспечить максимальную продуктивность. Учителя обладают обширными знаниями обо всем, особенно о предметах, по которым они специализируются. Хороший учитель постоянно расширяет свои знания и продолжает давать своим ученикам хорошее, современное образование. Точно так же хороший учитель подобен другу, который помогает нам в любой трудности. Хороший учитель создает индивидуальный процесс обучения, который уникален и не является универсальным. Это мотивирует учащихся лучше изучать предмет. Другими словами, хороший учитель гарантирует, что его ученики учатся эффективно и получают хорошие оценки. Прежде всего, хороший учитель – это тот, кто уделяет внимание не только нашей успеваемости, но и нашему общему развитию. Только тогда ученик сможет по-настоящему вырасти. Таким образом, хорошие учителя понимают проблемы своих учеников и стараются их правильно решить.

**Ключевые слова.** Учитель, знание, книга, просвещение, культура, образование, обучение, грамотность, добро, зло, поведение, манеры.

**Abstract:** Teachers are a special blessing given to us by the Creator. It is they who lead the nation to greatness, mature a person and change the world for the better. It is teachers who teach us that the pen is more important than the sword. They are respected in society, they increase people's living standards. They educate a person and teach human virtues, contribute to building a good society. Teachers have a great impact on society and the lives of students. They are also very important in the life of parents because parents expect a lot from teachers for their children. However, as in any field, there are good and bad mentors. Bad teachers are not that many, but their number is significant. A good teacher has qualities that a bad teacher does not have. A good teacher builds a good society, a bad one destroys that society. A good teacher can increase a student's love for profession and science, while a bad one can completely destroy it. Finding a good mentor isn't difficult, but it's important to know where to look. Good teachers are well prepared in advance to teach. They prepare their own action plan every day to ensure maximum productivity. Teachers have a lot of knowledge about everything, especially the subjects they specialize in. A good teacher constantly expands his knowledge and continues to impart good, up-to-date education to his students. Similarly, a good teacher is like a friend who helps us in every difficulty. . A good teacher creates an individual learning process that is unique and not generic. It motivates the students to learn the subject better. In other words, a good teacher ensures that his students study effectively and get good grades. Above all, a good teacher is one who focuses not only on our academic performance, but also on our overall development. Only then can the student truly grow. Thus, good teachers understand the problems of their students and try to solve them properly.

**Keywords.** Teacher, knowledge, book, enlightenment, culture, education, training, literacy, good, bad, behavior, manners.

Ilm bebahoh boylik, uni egallash oson ish emas. Ulamolar ilm olishni igna bilan quduq qazishgga o'xshatishgan. Inson shunday bebahoh xazinaning sohibi bo'lishida ustozning o'rni beqiyos. Ustozlarni ulug'lash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridandir. Ustoz-bu so'zni eshitganda bizga ta'llim, saboq bergan aziz ustozlarimiz ko'z oldimizga keladi. Xech o'ylab ko'rgannmisiz dunyoda ustozlar qancha? Ularning sanogi bormikan? Yo'q aslida bu savolni berishning o'zi axmoqlik, mening fikrimicha. Chunki dunyoga kelishimiz bilan biz shogirdga aylanamiz. Qanday qilib deysizmi? Yani bu ajib dunyoga ilk bor jajji ko'zlarimiz bilan boqqanimizdayoq tabarruk zot ustozni ko'ramiz. Yani ilk ustozimiz mushtipar onamizni ko'ramiz. xar bir bola bu dunyoga yig'lab keladi, keyin esa ilk ustoz, mehr farishtasi bo'lgan ona butun mehrini kulgusida aks ettirib, bizga bu sinovlarga boy dunyoga kulib boqishni, kulishni o'rgatadi. Ona o'z mehr-muxabbati bilan bizga mehrdan, muhabbtdan poklikdan, umiddan tarbiya beradi. Dunyoda oddiy tabiatning o'zi ham, taqdirimizdag'i hayot ham biz uchun bir ustoz. Tabiat bizga go'zallikdan dars bersa, hayot esa bardoshdan, sinovlardan, iymondan dars beradi.

"Ilm hikmat suvni yondirar" deydi dono xalqimiz. Ha haqiqatdan ham ilm shunday qudratga ega. Bu qudratni esa bizga ilmlar sultonni bo'lgan ustozlarimiz berishadi. Ilk maktabga borganimizda bilimlar olamiga yetaklovchi ustozlarimiz bizga ilk bor yashashni o'rgatgan onammiz kim ekanligini, uning qanday inson ekanligini o'rgatadilar. Biz nafas olayotgan tabiat, yashayotganimiz xayot nima ekanligini o'rgatadi. Biz uchun eng muqaddas inson bo'lgan onaning tabarruk "Ona" so'zini jajji barmoqlarimiz bilan oppoq qog'ozga xatosiz yozishni o'rgatadi. Ular bizni keljak sari ilm yo'lida yetaklab boradi. Ular bizga buyuk ajdodlarimizni tanitadi. Vatanimiz tarixini o'rgatadi. Bizdan talab qilinadigan bиргина yumush, ular uchun esa eng oliv mukofot bu bizning munosib shogird bo'lib, o'z yo'limizni topish va bizni tarbiya qilgan barcha ustozlarga munosib bo'lishdir. Bugun O'zbekistonda ta'llim islohotlarining uziyi qismi bo'lgan o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishga oid ibratli ishlar jahonning ko'plab davlatlari tomonidan yuksak baholanib, mustaqillik yillarida to'plangan boy va ilg'or ma'rifiy tajriba sifatida o'rganilayotur. O'qituvchilarining kasb bayramlari arafasida yoshlarimizni vatanga muhabbat, sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalayotgan, ustozlik kasbida halol va samarali ish olib borayotgan ilg'or pedagoglar Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanishlari ham buning amaldagi tasdig'idir. To'g'ri, o'quvchilik yillari sen uchun jon kuydirgan, o'qib olim, yaxshi odam bo'lsin deguvchi ustozlarning qadriga yetmaymiz. Ammodo xayotning katta yo'lida ularni ko'proq sog'inadi kishi.

Maktabga yo'qlab borsangiz, ustoz yana ko'zlari javdirab turgan, endigina maktabga qadam qo'yan bolakaylar bilan mashg'ul ekanini ko'rasiz. U kasbidan zerikmaydi. Aksincha, yillar o'tgani sayin ko'ngli xam boladek beg'yg'bor bo'lib boraveradi. Ali ibn Abu Tolibning shunday so'zları bor: "O'qishni bilsangiz, har bir inson bir kitobdir". Mana shu kitobning qulfiga kalit topib, ilk xarflarni o'rgatuvchi zotlar albatta ustozlarimizdir. Ustoz o'z kasbiga qalb qo'ri bilan kirishmasa, murabbiylit yo'lida xech qanday yutuqlarga erisha olmaydi. Axir o'qishni, yozishni bilmaydigan murg'akkina bolaga bir xarfni o'rgatish oson bo'lmasa kerak. Umrini shu sohaga bag'ishlagan o'qituvchilar xamma joyda bir xil — oddiy va kamtar.

Odamlarga xarf o'rgatib savodini chiqarish bu ularga o'rgatilgan eng yaxshi ta'lif desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki biz butun hayotimiz davomida shu ustozlarimiz o'rgatgan xarflardan foydalanib o'qiyimiz, yozamiz va ilmimizni oshirishda davom etamiz. O'sib ulg'aya boshlaganimizda, ota-onamiz va o'qituvchilarimiz hayotimizga birinchi bo'lib ta'sir qiladilar. Darhaqiqat, yoshligida talabalar o'z o'qituvchilariga to'liq ishonadilar va ular ota-onalariga qaraganda o'qituvchilarini ko'proq tinglaydilar. Bu o'qituvchining ahamiyati va ta'sirini ko'rsatadi. Biroq ulg'ayib oliygohlarga kirganimizda, o'qituvchilar do'stlarimizdek bo'lishadi. Ba'zi ustozlar hatto talabalardan o'rnak ham oladilar. Ustozlar bizni hayotda ajoyib ishlarga ilhomlanadir. Biz o'qituvchilardan fidoyi bo'lishni o'rganamiz. O'qituvchilar ba'zan o'zları ham bilmagan holda o'quvchiga juda muhim saboqlarni berishadi. Ustozlarimiz biz uchun faqatgina ta'lif beruvchi shaxsgina emas. Masalan o'quvchi maktabda jarohatlansa, aynan o'qituvchi uni birinchi yordam uchun kasalxonaga olib boradi. Bunday holatlar ustozlarimizning bizga qanchalik mehribon va gamxo'r ekanliklarini ko'rsatib beradi.

O'zbekistonda 1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Orzusi faqatgina o'quvchilarining kamolini ko'rish bo'lgan aziz va qadrli murabbiylarimizni dillarini hushnud etib, minnatdorchilik bildirish uchun aslida mahsus kunning hojati bo'lmasa kerak. Shunday bo'lsada 1 - oktyabr murabbiylar kuni sifatida nishonlanishi ularga ko'rsatilgan yuksak e'tibordan darak beradi.

Ustozlar haqida so'z yuritilar ekan doimo Iskandar Zulqarnayn to'g'risidagi hikoya yodimga tushadi. U ishg'ol qilgan yurtining taxtiga birinchi bo'lib ustozini o'tkazar ekan. Bir kuni undan: "Nima uchun bunday qilasiz?" deb so'rashganda: "Ota-onam tug'ilishimga, ustozim esa yuksalishimga sababchi bo'lganlar", degan ekan.

Poshshaxo'ja ham ustozlarning mehnatisiz hech kim yuksala olmasligini aytib, Iskandarning o'z ustoziga bo'lgan hurmatini keltirib o'tgan:

Hech kim ustozsiz topmas jahonda izzu joh,  
Nechakim hashmat bila Iskandari davron erur.

Darhaqiqat, biz erishgan har bir yutuqda ustozlarimizning hissalari mavjud.

Ilm olish va uni tarqatish yuksak savobli ish ekani to'g'risida Qur'oni Karimda, hadisi sharifda ko'plab oyat va hadislар kelgandir. Shulardan birida Payg'ambarimiz (s.a.v.) ilm tarqatuvchilarga ya'ni ustozlarga shunday ta'rif berib, ular erishadigan savoblarning juda katta ekani haqida quyidagicha bayon qilganlar.

Imom Bayhaqiy va Abu Ya'lolar Anas ibn Molik (r.a.) rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz (s.a.v.):

"Sizlarga sahiylar sahiysining xabarini beraymi? Sahiylarning sahiysi Allohdir. Men odam bolasining eng sahiysiman. Menden keyin sizdan eng sahiyingiz, ilm o'rganib, ilmini tarqatgan odamdir. U qiyomat kuni yolg'iz o'zi bir ummat bo'lgan holida tiriltiriladi", deganlar.

Albatta, ustozlar mana shunday yuksak mukofotlarga loyiq zotlardir.

Odamlarga xarf o'rgatib savodini chiqarish bu ularga o'rgatilgan eng yaxshi ta'lif desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki biz butun hayotimiz davomida shu ustozlarimiz o'rgatgan xarflardan foydalanib o'qiyimiz, yozamiz va ilmimizni oshirishda davom etamiz.

Ali ibn Abu Tolibning shunday so'zları bor: "O'qishni bilsangiz, har bir inson bir kitobdir". Mana shu kitobning qulfiga kalit topib, ilk xarflarni o'rgatuvchi zotlar albatta ustozlarimizdir. Ustoz o'z kasbiga qalb qo'ri bilan kirishmasa, murabbiylik yo'lida xech

qanday yutuqlarga erisha olmaydi. Axir o'qishni, yozishni bilmaydigan murg'akkina bolaga bir xarfni o'rgatish oson bo'lmasa kerak. Umrini shu sohaga bag'ishlagan o'qituvchilar xamma joyda bir xil – oddiy va kamtar.

To'g'ri, o'quvchilik yillari sen uchun jon kuydirgan, o'qib olim, yaxshi odam bo'lsin deguvchi ustozlarning qadriga yetmaymiz. Ammo xayotning katta yo'lida ularni ko'proq sog'inadi kishi.

Maktabga yo'qlab borsangiz, ustoz yana ko'zlar javdirab turgan, endigina maktabga qadam qo'ygan bolakaylor bilan mashg'ul ekanini ko'rasiz. U kasbidan zerikmaydi. Aksincha, yillar o'tgani sayin ko'ngli xam boladek beg'yg'bor bo'lib boraveradi.

Ertangi kunning kanday bo'lishi mактаб, bilim yurtlaridagi talim-tarbiyaga bog'lik. Chunki farzandlarimizning ongi-tafakkuri shu joylarda shakllanadi.

Ustozlarni ulug'lash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridandir. Bugun O'zbekistonda ta'lim islohotlarining uzviy qismi bo'lgan o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishga oid ibratlari ishlari jahonning ko'plab davlatlari tomonidan yuksak baholanib, mustaqillik yillarida to'plangan boy va ilg'or ma'rifiy tajriba sifatida o'rganilayotur. O'qituvchilarining kasb bayramlari arafasida yoshlarimizni vatanga muhabbat, sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalayotgan, ustozlik kasbida halol va samarali ish olib borayotgan ilg'or pedagoglar Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanishlari ham buning amaldagi tasdig'idir.

Yurtimizda "O'zbekiston qahramoni", "O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi hodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan, Vatanimizning orden va medallari bilan taqdirlangan murabbiylar safi yildan-yilga kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra hozirda ta'lim sohasida 423 ming nafardan ziyod o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning barchalariga yurtimiz kelajagi bo'lgan navqiron avlod vakillariga ta'lim-tarbiya berish kabi mashaqqatli va sharaflı ishlarda Yaratgandan kuch-g'ayrat tilab qolamiz. Sizlar doimo ardog'imizdasiz aziz ustozlar!

**Xulosa:** Men bu maqolam bilan shuni aytmqchimanki: ustozlarning jamiyatdagi o'rni beqiyosdir, ular azal-azaldan podshoga tenglashtirib kelinadi. Ustozlar orqaligina biz ilm-uma'rifatga, ta'llim, tarbiyaga, eng katta xazina bo'l mish bilimga ega bo'lamiz va shuningdek jamiyatdda o'z o'rnimizni topishimizda mehribon ustozlarimizning o'rnini alhida e'tirof etib o'tishimiz lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi faqat o'qituvchi vazifasini bajarmaydi. Zarur bo'lganda ular turli rollarga moslashadi. Biz xafa bo'lganimizda ular do'st bo'lishadi, biz yordamga muhtoj bo'lganimizda ota-onamiz kabi g'amxo'rlik qilishadi. Shunday qilib, ustozlar haqida gap ketganda ularning o'quvchilar hayotiga qanday ta'sir qilishini va uni qanday inson bo'lib shakllanishidagi rolini cheksiz ta'riflash mumkinligiga amin bo'lamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
2. <https://askinfo.uz>
3. <https://saviya.uz>
4. <https://religions.uz>